
SOLIJONOBOD MAHALLASIDAGI ICHIMLIK SUVI MUAMMOSI BARTARAF ETILMOQDA



Qo'shtepa tumanidagi Solijonobod MFY hududida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408-sonli qaroriga asosan toza ichimlik suvi tarmog'i tortish ishlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda 5,3 kilometr trasheya qazildi va 5,3 kilometr tarmoq tortildi. 2 dona suv nasosi o'rnatildi, markaziy suv inshootidagi binolar ta'mirlandi. Shuningdek, Jasorat hamda Afsona ko'chalarida ham tarmoq tortish ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-05-15 15:12:24